

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TALABALARDA MAQSADGA INTILUVCHANLIKNI TADQIQ ETISHNING EMPIRIK-METODOLOGIK DIZAYNI VA INSTRUMENTAL-PSIXODIAGNOSTIKASI

Babadjanova Sayyora Xushnutovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, dotsent.

e-mail: sayyora1504@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0596-2161>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada talabalarda maqsadga intiluvchanlikning psixologik mexanizmlari va shakllanish dinamikasi N=310 nafar tanlanmada empirik tahlil qilingan. Diagnostik kompleksning ishonchliligi va validligi konfirmator omilli tahlil orqali tasdiqlangan. Natijalar motivatsion, kognitiv va irodaviy-emotsional komponentlar o'rtasidagi disproportsiyani hamda bosqichlararo ijobiy dinamikani ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Maqsadga intiluvchanlik, talaba shaxsi, motivatsion-maqsadli komponent, kognitiv resurslar, matonatilik, o'z-o'zini boshqarish, psixometrik validlik, konfirmator omilli tahlil.

ЭМПИРИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ДИЗАЙН И ИНСТРУМЕНТАЛЬНО-ПСИХОДИАГНОСТИКА ИССЛЕДОВАНИЯ ЦЕЛЕУСТРЕМЛЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ

Бабаджанова Сайёра Хушнutowна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, доцент.

Аннотация.

В данной статье эмпирически проанализированы психологические механизмы и динамика формирования целеустремленности у студентов в выборке N=310 человек. Достоверность и валидность диагностического комплекса подтверждена конфирматорно-факторным анализом. Результаты показали диспропорцию между мотивационным, когнитивным и волево-эмоциональным компонентами, а также положительную динамику между этапами.

Ключевые слова: Целеустремленность, личность студента, мотивационно-целевой компонент, когнитивные ресурсы, настойчивость, саморегуляция, психометрическая валидность, конфирматорный факторный анализ.

EMPIRICAL-METHODOLOGICAL DESIGN AND INSTRUMENTAL PSYCHODIAGNOSTICS OF STUDYING GOAL-DIRECTEDNESS IN UNIVERSITY STUDENTS

Babadjanova Sayyora Xushnutovna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Associate Professor.

Abstract.

This article provides an empirical analysis of the psychological mechanisms and dynamics of goal-setting formation in a sample of N=310 students. The reliability and validity of the diagnostic complex were confirmed by confirmatory factor analysis. The results showed a disproportion between the motivational, cognitive, and volitional-emotional components, as well as positive inter-stage dynamics.

Keywords: Goal-directedness, student personality, motivational-goal component, cognitive resources, grit, self-regulation, psychometric validity, Confirmatory Factor Analysis.

Kirish. Zamonaviy globallashuv, axborotlashgan jamiyat va mehnat bozorining tezkor transformatsiyalashuvi sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri - nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki o'zining kasbiy va shaxsiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil belgilay oladigan, raqobatbardosh, strategik fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Talaba yoshlarda shaxsiy va kasbiy kamolotning o'zak determinantlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlik fenomeni shaxsning subyektiv faolligi, o'z-o'zini boshqarish va irodaviy-motivatsion resurslarining integrallashgan ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda oliy ta'limdagi akademik muhit talabalardan yuqori darajadagi avtonomlik, o'z-o'zini tashkillashtirish va uzoq muddatli maqsadlarga sodiqlikni talab etmoqda. Shu sababli, talabalarda maqsad

shakllanishining ichki psixologik mexanizmlari, kognitiv-motivatsion omillari va ularning emotsional-irodaviy nazorat bilan o'zaro aloqadorligini chuqur empirik tadqiq etish bugungi psixologiya va pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan fundamental normativ-huquqiy hujjatlar, xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, Yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining strategik qarorlari shular jumlasidandir [1] [2].

Ushbu normativ hujjatlarda yoshlarning intellektual va kasbiy salohiyatini oshirish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, akademik faoliyatda yuqori natijadorlikka erishishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor davlat vazifasi qilib belgilangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'lim va yoshlar tarbiyasining strategik ahamiyatini alohida ta'kidlab, shunday degan edilar:

"Biz yoshlarimizning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Eng muhimi - ularda aniq maqsadga intilish, iroda va matonat tuyg'usini tarbiyalashdir. Maqsadsiz kelajak bo'lmaydi, o'z oldiga ulkan va aniq maqsadlarni qo'ya oladigan yoshlarga jamiyatni va mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa oladi" [3].

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning maqsad sari intilish dinamikasini va unga ta'sir etuvchi psixologik omillarni chuqur o'rganish davlatimizning yoshlar siyosatidagi strategik maqsadlariga to'liq hamohangdir.

Maqsadga intiluvchanlik va uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganish xalqaro hamda mahalliy psixologiya fanida boy nazariy va empirik an'analarga ega. Xorijiy psixologiyada maqsadga intiluvchanlik kognitiv, motivatsion va o'z-o'zini boshqarish konsepsiyalari doirasida tadqiq etilgan. Jumladan, A.Bandura o'zining "kognitiv-ijtimoiy ta'lim va o'z-o'ziga samaradorlik (shaxsiy samaradorlik)" nazariyasida maqsadni shaxsning o'z faoliyatini boshqarishdagi markaziy vektori sifatida ko'radi [4]; E. Desi va R. Rayan tomonidan ilgari surilgan "o'z-o'zini belgilash nazariyasi" ichki va tashqi motivatsiyaning maqsad qo'yishdagi o'rnini ochib beradi [12]. A.Elliott va K.Murayama muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish maqsadlarining kognitiv strukturasi tahlil qilgan bo'lsa [6], A.Dakvort uzoq muddatli maqsadlarga sodiqlik va matonatlikni o'rganish orqali maqsadga intiluvchanlikning irodaviy asoslarini fundamental ochib bergan [5]. Shuningdek, R.Shvartser va M.Yerusalem shaxsning umumiy o'z-o'ziga ishonchi va kognitiv resurslar o'rtasidagi bog'liqlikni empirik asoslaganlar [14].

Mamlakatimiz ilmiy maktabi vakillaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, B.R.Qodirov va N.S.Safayev va boshqa yetakchi olimlarning tadqiqotlarida talaba yoshlar psixologiyasi, shaxsning kasbiy o'z-o'zini anglash jarayoni, irodaviy o'z-o'zini boshqarish va muvaffaqiyat motivatsiyasining psixologik qonuniyatlari keng tadqiq etilgan [8] [9] [11] [13]. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida maqsadga intiluvchanlik hodisasi ko'pincha alohida olingan psixologik xususiyat sifatida parchalanib o'rganilgan. Ayniqsa, modernizatsiyalashayotgan ta'lim muhitida talabalaridagi motivatsion-maqsadli, kognitiv-regulyativ va emotsional-irodaviy o'lchamlarning o'zaro deterministik aloqadorligini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks va instrumental psixodiagnostik dizaynni ishlab chiqish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish ushbu tadqiqotning bosh maqsadini belgilab beradi.

Maqsadga intiluvchanlik murakkab, ko'p komponentli va dinamik shaxs tuzilmasi bo'lganligi sababli, uni tadqiq etish yuzaki psixodiagnostik ma'lumotlarni yig'ish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon metodologik prinsiplar, konseptual model (jadval ko'rinishida), psixometrik o'lchov vositalari hamda matematik-statistik tekshirish usullarining uzviy va lozimiy birligini talab etadi.

Fundamental metodologik prinsiplar. Talabalarda maqsadga intiluvchanlikni tadqiq etishning empirik-metodologik dizayni quyidagi to'rtta fundamental prinsipga tayanadi:

Tizimlilik prinsipi. Maqsadga intiluvchanlik shaxsning alohida, ajratilgan xususiyati emas, balki kognitiv, motivatsion-irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlarning sinergetik integratsiyasidir. Tizimning har bir unsuri (masalan, akademik motivatsiya yoki grit) yaxlit maqsaddorlik strukturasi o'zining maxsus funksiyasini bajaradi va boshqa unsurlarning namoyon bo'lish darajasini belgilaydi.

Faoliyatlilik prinsipi. Maqsad shakllanishi, uning anglanishi va unga erishish traektoriyasi talabaning obyektiv akademik hamda ijtimoiy-amaliy faoliyati jarayonida ro'yobga chiqadi. Faoliyatdan tashqarida maqsadga intiluvchanlikni baholash imkonsiz; u faqat muayyan to'siqlarni yengish va natijadorlikka erishish dinamikasida namoyon bo'ladi.

Subyektivlik prinsipi. Talaba o'zining shaxsiy va kasbiy rivojlanish traektoriyasining faol subyekti sifatida qaratiladi. U tashqi ta'sirlarni shunchaki passiv qabul qilmaydi, balki o'z qadriyat va ehtiyojlaridan kelib chiqib maqsad qo'yadi, o'z-o'zini faollashtiradi va xulq-atvorini anglangan holda boshqaradi.

Determinizm prinsipi. Maqsadga intiluvchanlikning rivojlanish darajasi va xususiyatlari ichki psixologik determinantlar (iroda, o'z-o'ziga samaradorlik, motivatsiya) hamda tashqi ijtimoiy-pedagogik omillar (akademik muhit, ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash) o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorliklari orqali belgilanadi.

Empirik-metodologik dizaynning konseptual modeli

1-jadval. Talabalarda maqsadga intiluvchanlikni tadqiq etishning empirik-metodologik va instrumental konseptual modeli

Bosqichlar	Konseptual Tuzilma va Komponentlar	Mazmuni va Diagnostik Apparat
I. METODOLOGIK ASOS	Fundamental prinsiplar	• Tizimlilik prinsipi • Faoliyatlilik prinsipi • Subyektivlik prinsipi • Determinizm prinsipi
II. KONSEPTUAL O'LCAMLAR	1. Motivatsion-maqsadli	Maqsad yo'nalishi va faoliyat manbalarini belgilash
	2. Kognitiv-boshqaruvchanlik	O'z imkoniyatlariga ishonch (o'z-o'ziga samaradorlik) va aqliy-intellektual resurslar
	3. Irodaviy va emotsional-nazorat	Grit (matonatlilik), irodaviy chidamlilik va o'z-o'zini tartibga solish
	4. Integrativ va tarmoq	Spetsifik shaxsiy va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar
III. INSTRUMENTARIUM	Psixodiagnostik metodikalar majmui	• A.J. Elliot, K. Murayama so'rovnomasi • T.O. Gordeyeva va boshq. ("AMS") • R. Shvartser, M. Yerusalem ("GSE") • F. Kalina metodikasi • A.L. Dakvort ("Grit Scale") • N.E. Stambulova metodikasi • G.S. Nikiforov va boshq. metodikasi • Mualliflik psixologik so'rovnomasi
IV. MATEMATIK-STATISTIKA	Verifikatsiya apparati	Guruhlararo taqqoslash: Styudentning t-mezoni, Mann-Uitnining U-mezoni, Kruskal-Uollisning H-mezoni. Korrelyatsion va strukturaviy tahlil: K. Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Metodologik prinsiplar va psixodiagnostik kompleksning deterministik aloqadorligi. Tadqiqotda qo'llaniladigan har bir psixodiagnostik metodika aniq metodologik prinsip va konseptual o'lchamga mos kelishi shart. Diagnostik vositalar va ularning metodologik asoslanishi o'rtasidagi deterministik bog'liqlik quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan (2-jadval):

2-jadval

Konseptual O'lcham	Diagnostik Instrument	O'lchanadigan Konstruktlar / Shkalalar	Metodologik Asoslanishi
1. Motivatsion-Maqsadli	A.J. Elliot, K. Murayama [6] <i>"Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan maqsadlar so'rovnomasi"</i>	• Muvaffaqiyat-yondashuv • Muvaffaqiyat-qochish • Mahorat-yondashuv • Mahorat-qochish	Determinizm prinsipi: Faoliyat yo'nalishini belgilovchi kognitiv-motivatsion orientatsiyalarni aniqlaydi.
	T.O. Gordeyeva, O.A. Sechev, E.N. Osin [7] <i>"Akademik motivatsiya shkalasi (AMS)"</i>	• Bilish motivatsiyasi • Muvaffaqiyat motivatsiyasi • O'z-o'zini rivojlantirish • Tashqi motivatsiya va amotivatsiya	Faoliyatlilik prinsipi: Talabani akademik faoliyatdagi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlarini ko'rsatadi.
2. Kognitiv-Regulyativ va O'z-o'zini faollashtirish	R. Shvartser, M. Yerusalem [14] <i>"Umumiy o'z-o'ziga ishonch shkalasi"</i>	• Generalizatsiyalashgan self-efficacy (o'ziga samaradorlik resurslari)	Subyektivlik prinsipi: Qiyinchiliklar va kutilmagan vaziyatlarda subyektning o'z kuchiga bo'lgan kognitiv ishonchini o'lchaydi.

	(GSE)"		
	F. Kalina <i>"Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasi"</i>	• Subyektiv aktivlik • Potensialni amaliyotga safarbar etish darajasi	Faoliyatlilik va Subyektivlik: Shaxsiy resurslarni maqsad sari yo'naltirishdagi faol harakat rejimini baholaydi.
3. Irodaviy va Emotsional-Nazorat	A.L. Dakvort [5] <i>"Grit (Maqsadga sodiqlik va matonatlilik)"</i>	• Qiziqishlarning barqarorligi • Sa'y-harakatlarning izchilligi (Matonat)	Tizimlilik va Determinizm: Uzoq muddatli maqsadlarga erishishda irodaviy chidamlilik va izchillikni ta'minlaydi.
	N.E. Stambulova <i>"Irodaviy sifatlarining rivojlanish darajasi"</i>	• Qat'iyatlilik va dovratsizlik • O'zini tuta bilish va intizom	Tizimlilik prinsipi: Maqsadga intilishning irodaviy-amaliy komponentlarini tarkibiy baholaydi.
	G.S. Nikiforov, V.K. Vasilev, S.V. Firsova <i>"Emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilish"</i>	• Emotsional barqarorlik • Stressogen omillar ta'sirida self-regulyatsiya	Determinizm prinsipi: Salbiy emotsional holatlar ta'sirida maqsad vektorining og'ib ketmasligini ta'minlaydi.
4. Integrativ va Tarmoq Diagnostikasi	Mualliflik so'rovnomasi <i>"Talabalarda maqsadga intiluvchanlik darajasini aniqlash"</i>	• Akademik va kasbiy maqsadlarning aniqligi • Ijtimoiy-pedagogik muhit ta'siri	Tizimlilik va Subyektivlik: Talabalardagi maqsad shakllanishining spetsifik va integrallashgan xususiyatlarini qamrab oladi.

Diagnostik instrumentariyning psixometrik validligi. Har qanday tadqiqotda empirik ma'lumotlarni to'plashda foydalaniladigan psixodiagnostik testlarning psixometrik talablarga to'liq javob berishi talab etiladi. Shuning uchun tadqiqot jarayonida tanlangan instrumental apparat quyidagi psixometrik bosqichlardan o'tkaziladi.

Metodikalarning nazariy va amaliy mosligi. Barcha moslashtirilgan so'rovnomalar (GSE, Grit, AMS va b.) o'zbek va rus tillarida lingvistik hamda madaniy adaptatsiya bosqichidan o'tkazilib, omilli tahlil orqali ularning nazariy konstruktg mosligi tasdiqlanadi.

Ichki izchillik va ishonchlilik (savollarning o'zaro mosligi va barqarorligi). Metodikalarning har bir shkalasi bo'yicha ishonchlilik koeffitsiyenti Kronbah alfasi (α) orqali baholanadi. DSc ilmiy standartlariga ko'ra, barcha testlar uchun $\alpha \geq 0.75$ ko'rsatkichiga erishilishi nazorat qilinadi.

Standartlashtirish va normativ baholash. Olingan natijalar talabalar tanlanmasi xususiyatlaridan kelib chiqib standart ballarga (T-ballar yoki stenlar) o'tkaziladi.

Ushbu metodologik dizayn va psixodiagnostik apparatning o'zaro muvofiqligi tadqiqotning keyingi bosqichida to'planadigan empirik ma'lumotlarning matematik-statistik verifikatsiyasi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

DSc tadqiqoti doirasida olingan ma'lumotlarning ishonchliligi va reprezentativligini ta'minlash maqsadida diagnostik instrumentariy psixometrik talablarga muvofiqlashtirildi va kompleks empirik sinovdan o'tkazildi.

Test va so'rovnomalarning ilmiy aniqligi hamda ishonchliligi. So'rovnomalar va mualliflik metodikasi lingvistik-madaniy adaptatsiya qilinib, ularning nazariy va amaliy mosligi hamda savollarning o'zaro mosligi (ichki izchillik) baholandi.

Test savollarining o'zaro mosligi va barqarorligi (Kronbah α). Barcha metodikalar bo'yicha yuqori ishonchlilik ko'rsatkichi ($\alpha \geq 0.75$).

- A. J. Elliot va K. Murayama (Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan maqsadlar): $\alpha = 0.82-0.86$.
- T. O. Gordeyeva va boshq. (Akademik motivatsiya): $\alpha = 0.79-0.88$.
- R. Shvartser, M. Yerusalem (O'z-o'ziga samaradorlik — GSE): $\alpha = 0.84$.
- A. L. Dakvort (Grit — Matonatlilik va sodiqlik): $\alpha = 0.81$.
- N. E. Stambulova (Irodaviy sifatlar): $\alpha = 0.78-0.83$.
- G. S. Nikiforov va boshq. (Emotsional nazorat): $\alpha = 0.76$.
- F. Kalina (O'zini o'zi faollashtirish): $\alpha = 0.79$.
- Mualliflik so'rovnomasi (Maqsadga intiluvchanlik): $\alpha = 0.85$.

Tajriba-sinov ishlari yetakchi OTMlarning 2-4-kurs talabalari o'rtasida an'anaviy hamda elektron formatda o'tkazildi. Umumiy tanlanma soni (N) 310 nafar talaba (2-kurslar — 170 nafar, 4-kurslar — 140 nafar).

Integrallashgan maqsadga intiluvchanlik ko'rsatkichlari. Birlamchi psixodiagnostika natijasida talabalarda maqsadga intiluvchanlik komponentlarining taqsimot darajalari aniqlandi (3-rasm).

3-jadval

Maqsadga intiluvchanlik o'lchamlari	Past (%)	O'rta (%)	Yuqori (%)
1. Motivatsion-maqsadli komponent	22.5%	54.1%	23.4%
2. Kognitiv-boshqaruvchanlik komponenti	19.8%	58.3%	21.9%
3. Irodaviy va emotsional-nazorat komponenti	28.1%	51.6%	20.3%
4. Integrallashgan umumiy ko'rsatkich	23.4%	54.7%	21.9%

Talabalarining ko'pchiligida (54,7 %) maqsadga intiluvchanlik o'rta darajada shakllangan. Biroq irodaviy-emotsional komponent bo'yicha past ko'rsatkichning yuqoriligi (28,1 %) ularda uzoq muddatli matonatilik va o'z-o'zini boshqarishni maxsus rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar keyingi bo'limda matematik-statistik mezonlar (t, U, H, r) orqali tasdiqlanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosalar. Maqsadga intiluvchanlik motivatsion, kognitiv va irodaviy-emotsional komponentlarning uzviy bog'liqligidan iborat integrallashgan psixologik resursdir.

Talabalarining 54,7 % qismida maqsadga intiluvchanlik o'rta darajada shakllangan. Irodaviy-emotsional komponent bo'yicha past ko'rsatkichning yuqoriligi ularda matonatilik va o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

O'qish bosqichining oshishi bilan kognitiv hamda irodaviy resurslar ortib, tashqi motivatsiyadan kasbiy-ichki motivatsiyaga o'tish kuzatiladi.

Ilmiy va amaliy tavsiyalar. OTM rahbariyati va o'quv bo'limlariga: 1-kurslar uchun "Akademik o'z-o'zini boshqarish va matonatilik" trening modulini kiritish hamda tyutorlar faoliyatiga psixopedagogik dasturlarni tatbiq etish.

OTM psixologlariga: validlangan diagnostik kompleks orqali monitoring yuritish hamda irodaviy-emotsional ko'rsatkichlari past talabalar uchun maxsus rivojlantiruvchi treninglar o'tkazish.

Talabalarga: qisqa va uzoq muddatli maqsadlar balansini ta'minlovchi "O'z-o'zini rivojlantirish xaritasi" bo'yicha amaliy qo'llanmalar taqdim etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – 2019-yil 8-oktabr. – PF-5847-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – 2023-yil 11-sentabr. – PF-158-son.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 245–248.
4. Bandura A. Toward a Psychology of Human Agency: Pathways and Reflections // Perspectives on Psychological Science. – 2018. – Vol. 13. – No. 2. – P. 130–136.
5. Duckworth A. L., Quinn P. D. Development and Validation of the Short Grit Scale (Grit-S) // Journal of Personality Assessment. – 2009. – Vol. 91. – No. 2. – P. 166–174.
6. Elliot A. J., Murayama K. On the Measurement of Achievement Goals: Critique, Illustration, and Revision // Journal of Educational Psychology. – 2008. – Vol. 100. – No. 3. – P. 613–628.
7. Гордеева Т. О., Сычев О. А., Осин Э. Н. Опросник академической мотивации // Психологический журнал. – 2014. – Т. 35. – № 4. – С. 96–107.
8. G'oziyev E. G'. Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
9. Karimova V. M. Psixologiya metodologiyasi va tadqiqot usullari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021.
10. Kline R. B. Principles and Practice of Structural Equation Modeling. 5th ed. – New York: Guilford Press, 2023.
11. Nishanova Z. T., Rasulova F. F. Oliy ta'limda psixologik xizmat ko'rsatishning ilmiy-amaliy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
12. Ryan R. M., Deci E. L. Intrinsic and Extrinsic Motivation from a Self-Determination Theory Perspective: Definitions, Theory, Practices, and Future Directions // Contemporary Educational Psychology. – 2020. – Vol. 61. – Art. 101860.
13. Safayev N. S. Talabalarda kasbiy-shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini anglashning psixologik xususiyatlari // Psixologiya. – 2019. – Vol. 3. – No. 1. – B. 12–19.
14. Schwarzer R., Jerusalem M. Generalized Self-Efficacy Scale // In: Weinman J., Wright S., Johnston M. (Eds.). Measures in Health Psychology: A User's Portfolio. Causal and Control Beliefs. – Windsor: NFER-NELSON, 1995. – P. 35–37.
15. Usmanova E. Z. Talabalarda intellektual o'z-o'zini tartibga solish va kasbiy shakllanishning psixologik mexanizmlari // Psixologiya va ta'lim jurnali. – 2023. – Vol. 2. – No. 1. – B. 45–53.